

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA**GEOMETRIK MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH USULLARI****Po'latova Kamola Nuraliyevna**

NavDPI mustaqil tadqiqotchisi

Hozirgi kunda xalq ta'lifi oldida ta'lif tarbiya samaradorligini oshirishning turli metodlarini takomillashtirish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. Bu vazifa bevosita boshlang'ich maktabning ham vazifasi. Kelajak avlodni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, sog'lom hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi. Ta'lif samaradorligi oshirishning turli yo'llari mavjud. Masalan: talimning turli metodlaridan unumli foydalanish, uning mazmunini qayta ko'rib chiqish, davr talabiga mos materialni tanlash, ta'lif jarayonini tashkil yetishning turli shakllaridan maqsadga muvofiq holda oqilona foydalana olish va hokazolar. O'quvchi o'quv faoliyatini faollashtirish bevosita o'qituvchi hamda o'quvchi faoliyatlarini to'g'ri tashkil yetish va uni boshqarishga bog'liq.

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarini matematika go'zalliklaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish – barcha uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoev 2020-yilning 12-iyunida Toshkentdagi talabalar shaharchasidagi Matematika institutining yangi binosidagi tashriflarida "Matematika fanining tamal toshini Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' bobolarimiz qo'ygan. Bu bizning qonimizda bor. Lekin oxirgi yigirma yilda matematikadan bilim darajasi pasayib ketdi. Chunki o'qituvchilarga kerakli e'tibor, munosib oylik berolmadik, pirovard maqsad qo'ya olmadik. Buning oqibati hozir ko'pdan-ko'p sohalarda sezilyapti. Bugun bu fanni rivojlantirishdan maqsadimiz – matematika bo'yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo'naliishlari bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash" [1] - kerakligi haqida ta'kidlab aytgan. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofda kechayotgan voqeа va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga yega.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'lifi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9- iyuldagи "Matematika ta'lifi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika

instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387- sonli qarori, 2020- yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiytadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020- yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'lifini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan [2]. Xususan, mazkur dasturdan o'rinni olgan. "Matematika ta'lifini rivojlantirish konsepsiysi" yuqoridagi matematika ta'lifini har tomonlama takomillashtirish hamda yangi sifat bosqichiga olib chiqish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofimizdagi voqeasi va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. SHuning uchun ham matematik madaniyat — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lif olishni davom yettiresh uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;
- milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Matematika fani boshqa fanlarga qaraganda murakkab hisoblansada, lekin fanga nisbatan tushunchalarni ongli ravishda tushunilsa bu fandan qiziq fan bo'lmaydi. Matematikani assosi masalalardan iborat bo'lib, har bir matematik belgi o'zida mantiqiy bir fikrni mujassamlashtirgan. Ko'pgina olimlarimiz bu fanni rivojlanishida o'zlarining metodik qo'llanmalari, kitob va darsliklari bilan o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

O'quvchilarni masala ishlashga o'rgatish o'qituvchidan ancha pedagogik mahorat talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir bolaning psixologiyasini bilgan holda unga nisbatan munosabat o'rnatadi. Matematika darsligidan masalalar ishlash jarayonida ham o'qituvchi bolaning bilim darajasiga qarab masalaning arifmetik amallarini hayot bilan bog'lagan holda unga tushuncha berib boradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogika va psixologiya fanlarini mukammal bilishi, har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, ularga ta'lif berish ishlarini o'qituvchilar amalga oshiradilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganib, shu o'rgangan nazariyalarini diagnoz qilishlari ham kerak bo'ladi. Maktabga ilk qadam qo'ygan har bir bola qo'shishni yoki ayirishni bilavermaydi, o'qituvchi uning bilim darajasi, qobiliyati shu bilan birga layoqatini

hisobga olgan holda sinfda munosabat o'rnatadi. Matematika fani o'quvchilarni qobilyatlarini namoyon qilish bilan birga ularning qobilyatlarini rivojlantiradi.

Ta'lism-tarbiya jarayonini to'g'ri, ilmiy asosda tashkil qilish uchun ta'lism jarayonining o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, ya'ni bilimlarni o'zlashtirish jarayonini, ko'nikma va malakalarini, faol, mustaqil, individual tarzda hamda ijobjiy tafakkur jarayonlarini va ongli fikrlashni tarkib toptirishni yaxshi bilish lozim bo'ladi. Bu esa ilmiy tushunchalarning tarkib topishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Masalalarni ishslash jarayonida har bir matematik belgiga urg'uni qo'ygan holda o'quvchiga ta'sir qilgan holda o'qish kerak.

Boshlang'ich sinflarda masalalarni o'rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, soda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o'tish yordamida amalga oshiriladi. Agar berilgan masala o'zining murakkabligi bilan sinfda yechilgan masalalarga mos yoki o'xshasa u holda o'quvchilar taklif qilingan masalaning yechilishi yo'lini mustaqil topishga o'rgatish kerak. Shu maqsadda o'quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng soda umumiyligini egallashlari lozim. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida masala shartini qisqa va yaqqol yozib olishlari, yechish yo'llarini topishni osonlashtirish maqsadida shartini "chizma yoki rasm bilan" tasvirlay olishlari kerak. O'quvchilar yechilayotgan masalada nima ma'lum nima noma'lumligini masala shartidan nima kelib chiqishini qanday arifmetik amallar yordamida qanday tartibda masala savoliga javob topish mumkinligini aniq va ravshan tushuntirishga o'rganishlari kerak. O'quvchilar har bir amalni nega tanlaganliklarini anglay olishlari masala bo'yicha ifoda yoki tenglama tuzib olishlari uni yecha olishlari, savolga javob berib, yechimning to'g'riliqini tekshirib olishlari lozim [3] .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi PQ-43-87- sonli Prezident Qarori, 2019-yil 9-iyul.
2. "Matematika sohasidagi ta'lism sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi PQ-47-08-sonli Prezident Qarori, 2020-yil 24- yanvar
3. Jumayev M.E "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" T.: "O'qituvchi". 2004. -326 bet.